

MENING MAHALLAM -MENING FAXRIM

Hamroyeva Sevinch Hamroyevna

Toshkent Davlat Iqtisodiyot universiteti Moliya va Buxgalteriya hisobi fakulteti

Buxgalteriya hisobi va audit yo'nalishi 2-kurs talabasi


hamroyevasevinch1@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7676998>

Mahalla ming yillar davomida Shakllangan, o'ziga xos qiyofasini ko'rsatib turadigan noyob ijtimoiy tuzilma. Bir -biriga mehr oqibat ko'rsatib yashash ,yaxshi va yomon kunlarda birga yelkadosh bo'lish singari insonga xos fazilatlar aynan mahallada tarkib topadi.

Shavkat Mirziyoyev


Mahalla... X asrda yashab o'tgan buxorolik tarixchi Abu Bakr Muhammad ibn Ja'far Narshaxiyning «Buxoro tarixi» kitobida mahalla haqida ma'lumot ilk bor uchraydi. Hozir esa «mahalla» so'zini kunda bir necha bor eshitamiz va tilga olamiz. E'tibor bergan bo'lsangiz, mahallalar ko'pincha katta ko'cha bir tomonining ma'lum qismini va uni oralab ketgan ko'chalar, tor ko'chalar, berk ko'chalarni qamrab oladi. Mahallalar qanday tarkib topgan? Mahallalar, odatda, asrlar davomida kasb-hunar yoki milliy belgilar asosida vujudga kelgan. Hozirgi paytda mahallalar aholi bilan ishlaydigan g'oyat muhim organga aylangan. Unga maxsus qonun bilan o'zini o'zi boshqarish huquqi berilgan. [Binobarin](#), mahallaning, unda istiqomat qiluvchi aholining barcha muammolari o'sha yerning o'zida hal etiladi. Mahallamda katta tarbiyaviy ish olib boriladi. «Bir bolaga yetti go'shni ota-ona» naqliga asoslanib, mahalla ahli bolalar tarbiyasida faol qatnashadi. Mahallamizda o'tkaziladigan har bir tadbir odamlarni birdamlikka, hamjihatlikka, ahilikka chorlaydi. Buning zamirida men bir yoqadan bosh chiqarish, bir-birini qo'llab-quvvatlash, bir-biriga yordam berish singari o'zbek xalqiga xos ulug' qadriyatlarimizning aksini ko'raman. Mahalla o'zbekona hayot tarzining intiqosidir. Mening mo'jazzina mahallam o'rta osiyo qoraxoniylarining turkiy sulolasi vakili Shamsulmulk tomonidan barpo etilgan monumental me'moriy yodgorlik RABOTI MALIK (taxminan [1069-1079](#)) nomini abadiylashtirgan holda **Malikrabort** deb ataladi. Malikrabort — [Navoiy viloyatidagi shaharcha](#). [Navoiy tumanining](#) markazi ([1999-yil 27-maydan](#)). [Viloyat](#) markazi [Navoiydan](#) 20 km janubi-g'arbda joylashib, bugungi kunda 9000 kishidan iborat katta oila a'zolari ahillikda umrguzaronlik qilishmoqda. Asosan [o'zbeklar](#); shuningdek, [tojik](#), [tatar](#), [rus](#) va boshqa millat vakillari totuvlikda necha yillardan buyon yashaydi. Mahallamning o'rta yosh vakillarining aksariyat qismi Navoiy shahridagi sanoat korxonalarida ishlaydi



Shaharchamizda [Navoiy konchilik metallurgiya kombinatiga](#) qarashli "Do'stlik" agrofirma, "Sardobaparranda" fabrikasi, [Buyuk Britaniya](#) va O'zbekistonning "Massey Fergusson" qo'shma korxonasi faoliyat ko'rsatadi. Malikrabot shaharchamning yonida [Navoiy xalqaro aeroporti](#) joylashgani va menga chet eldan tashrif buyurgan mehmonlarning avvalo qadami, ilk kechalarini aynan bizning mahallamizda o'tkazishlari qalbimda O'zbekistonning nomini mashhur qila olish imkoniyatini berganidan doimo ko'ksim faxrga to'ladir. Shaharchamizda yaqin yillarda yurtboshimiz tashabbusi bilan "Do'stlik" madaniyat uyi, klub, madaniyat va istirohat bog'i, savdo, maishiy xizmat ko'rsatish shoxobchalari qad rostlagani mahallamizning yosh-u qarisini shukrona hissini uyg'otganini men ochilish marosimidagi tadbirda insonlarning ko'zlaridagi nurlaridan his etdim. Malikrabotda tarixiy-me'moriy yodgorliklardan [Raboti Malik](#) va [Sardoba Malik \(XI asr\)](#) saqlanib qolgan


Raboti malik-Shoh raboti Qadimiy [Buxoro](#) — [Samarqand](#) yo'lining Cho'li Malikdagi yirik chegara va [savdo bekatida](#) bunyod etilgan. Katta [karvonsaroy](#), hozirgi [Navoiy shahri](#) yaqinida. Bizgacha uning faqat [peshtoq](#) qismi ([diametri](#) — 12,6 m.) saqlangan. Janubiy [minorasi](#) ([balandligi](#) 5,5 m) 1930-yilgacha mavjud bo'lgan. Karvonsaroy vazifasidan [tashqari](#), [istehkom](#), [qo'rg'on](#) sifatida ham muhim [rol](#) o'ynagan. Rabot katta keng [hovli](#) (22,5x22,5 m) va atrofi o'ralgan 2 qavatli [xona-hujralardan](#) iborat bo'lib, ularga [sopol quvurlar](#) orqali suv o'tkazilgan. Markaziy qismi [to'ridagi](#) muhtasham [saroy](#) oldi bir qatorli [ravoqli ayvon](#) (7,5x13 m) 2 [qanotiga](#) joylashgan. 20 ta g'ishtin ustun ishlangan. Unga janubidagi peshtoqli [darvoza](#) orqali kirilgan. Atrofi qalin [devorlar](#) bilan o'ralgan (jan. va [shim.](#) balandligi 2,35 m, [g'arb](#) va [sharqiy](#) qismi 1,5 m, [uz.](#) 84–86 m, old devor balandligi 12 m ga yaqin). [Maydonga](#) qaragan janubiy [tarzi](#) o'rtasidagi ulkan peshtoq (bo'yi 18 m, eni 12 m) O'rta Osiyoda eng qadimiy bo'lib, 8 kirrali [yulduzlar](#), turli [handasiy](#) shakllar mavjud. 2 chekkasida [burj](#) bo'lib, ular o'zaro baland devor bilan ulangan. Devor o'rtasida [piltavor](#) burjlar qatori tepasi kichrayuvchi ravoqlar bilan bog'langan. Devor yuqorisi g'ishtin [kufiy xatlar](#) bilan [hoshiyalangan](#). Burjlar tepasida ravoqli [ko'shk](#) bo'lib, undan atrofni kuzatish qulay bo'lgan. Ko'shk ostida [ganchdan](#) yasalgan ikki qator yirik [sharafa](#) va kufiy xat [halqasi](#) ko'zga tashlanadi. Rabot devorlarining [o'zagi](#) xom [g'ishtdan](#) (28x28x6,5 [sm](#)) terilgan, [sirti](#) pishiq g'ishtdan (24x24x4 [sm](#)) ishlangan. [Bezaklari](#), asosan, g'ishtin, oz miqdorda [o'yima](#) ganch [naqshlar](#) ham uchraydi. Raboti Malik harobasi davlat muhofazasiga olingan.





Hozir [mahallalamizda maishiy](#), ma'naviy, ijtimoiy, madaniy masalalar bilan shug'ullanuvchi turli-tuman komissiyalar faoliyat ko'rsatmoqda. Mahalla faollari aholini ijtimoiy foydali mehnat bilan qamrab olish, qo'shimcha ish joylarini yaratish uchun kichik korxonalar ochish haqida bugungi kunda qizg'in loyihalarni ko'rib chiqishmoqda. Mahallamiz aholining ko'[pchilik ovozi bilan saylanib](#), tegishli tuman hokimiyati tasdiqlagan rais va faollar tomonidan boshqariladi. Tartib-intizomni nazorat qilish esa ichki ishlar uchastka noziri, ko'ngilli posbonlar tomonidan amalga oshiriladi. Kelajakda mahallamiz aholisining menga nisbatan ishonib topshirgan ma'suliyatini men har gal meni "Eng barkamol yoshlar vakili" sifatida e'tirof etishgani tufayli ham his qilib turaman va buni quyidagi o'z qalamimga mansub satrlarda ifodalayman:

Mahallamiz ho'p obod
Nomi uning Malikrabet.
Ko'kalamzor ,chamanzor
Gullarning baridan bor.
Mahallamiz faollari
Tinim bilmas kuyinchak.
Qizlari sarishtadir,
Yigitlari sherbilak.
Go'yo mahallamizni
Uylari deb bilurlar.
Obod bo'lsin deb uni
Tez-tez hashar qilurlar.
Bajarilgan ishlardan
Quvonsak arziydi biz.
Bugun mahallamizning
Ta'rifiga til ojiz.
Hislarim she'rga solib
Oldim qo'limga qalam .





Bundanda yashnayvergin,
Mening obod Mahallam.

Foydalanilgan Adabiyotlar:

1. O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil

